Sh.Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslarini boshqarish fakulteti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsentlar,ma'sul B.M.Bobokulov,Sh.S.Sharifov va ass.J.K.Boymurodovlar tomonidan tuzilgan "Iqtisodiy nazariya" fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi o'quv rejaga mos ravishda tuzilgan bo'lib unda qaysi mavzularni auditoriyada va qaysi mavzularini mustaqil ta'lim shaklida o'tish batafsil yoritib berilgan.Ma'ro'za va amaliy darslarda iqtisodiy nazariyaning kelib chiqish tarixi fanining predmeti va vazifalari o'rganish usullari batafsil o'rganib chiqish lozimligi ko'rsatilgan.

Talabalarga iqtisodiyot nazariyasining mazmuni-mohiyati,vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlari,iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini,iqtisodiy qonunlar va tamoyillarni o'rganish jarayonlarning amaliy xolati,iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini,xududlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayoni hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini xosil qilish o'rganiladi.

O'qituvchining dars jarayonidagi asosiy vazifasi talabaning o'qish jarayonidagi o'zlashtirish qobiliyatini oshirish,talabada innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish,zamonaviy axborot-kommunikatsiyalar tizimidan keng foydalanish faoliyatini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga amaliy yordam beradi.

"Iqtisodiy nazariya" fanini o'rganishda qo'llaniladigan ilg'or ta'lim texnologiyalarni va metodlarini qo'llagan holda, o'quv jarayonlarini tokomillashtirish nazarda tutilgan.Talabaning ushbu fanni mukammal o'rganib olish uchun qo'yilgan talablar ushbu dasturda o'z aksini topgan.

Fanni o'zlashtirish jarayonidagi zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ham keltirilgan.Ayrim mavzularni o'rganish jarayonida kafedra a'zolarining metodik, me'yoriy hujjatlari va qo'llanmalari foydalanish uchun tavsiya etilgan.SHu bilan birga,mamlakatimizda ishlab chiqarilgan ohirgi qonun- qoidalar, axborot manbalari (saytlar) tavsiya etilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Iqtisodiy nazariya"fanidan tuzilgan fan dasturi kafedrada muhokama qilingan ichki taqriz mavjud,fakultetning o'quv uslubiy kengashida muhokama qilinib o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etiladi.

SamDU "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi mudiri, professor,i.f.d. **N.U.Arabov**

A. Nizomov.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI INSON RESURSLARI VA MAHALLA TARAQQIYOTINI BOSHQARISH INSTITUTI

Ro'yxatga olindi: № BD-60410100 2024 yil "12" 10	**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

IQTISODIYOT NAZARIYASI

FAN DASTURI

Kunduzgi bo'lim uchun

Bilim sohasi:	400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410900 – Biznesni boshqarish

SAMARQAND – 2024

Fan/modul kodi IQN11210	O'quv yili 2024-2025	Semestr I II	ECTS – Kreditlar 10
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	Iqtisodiyot nazariyasi	120	180	300

Fanning maqsadi (FM)

FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o'qitishdan maqsad** – Iqtisodiyot nazariyasining mazmun-mohiyati, vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlari, iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish. **Fanning vazifasi** – Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish.

Fan mazmuni

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)

M1	**Iqtisodiyot nazariyasi faniga kirish.** Iqtisodiyot va uning bosh masalasi. Iqtisodiy faoliyat. Cheklangan iqtisodiy resurslar. Iqtisodiyot. Makroiqtisodiyot. Mikroiqtisodiyot. Ishlab chiqarish, taqsimot ayriboshlash va iste'mol jarayonlari. Ehtiyoj va uning turlari. Moddiy va ma'naviy ehtiyoj. Ehtiyojlarning to'xtovsiz o'sib borish qonuni. Iqtisodiy resurslar va uning turlari. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi. Antik dunyodagi iqtisodiy qarashlar. Ksenofont, Platon va Aristotellar qarashlari. Qadimgi Misr, Xitoy, Hindistondagi iqtisodiy qarashlar. Markaziy Osiyo muafakkirlarining iqtisodiyot haqidagi fikrlari. Iqtisodiyot nazariyasi faning shakllanishi. Merkantilizm, fiziokratlar va flassik iqtisodiy nazariya. A.Smit va D.Rikardo nazariyalari. Iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishi. Marksizm, marjinalizm, neoklassik, monetarism va keynschilik nazariyalari.
M2	**Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, vazifalari va uslublari.** Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va uni aniqlash bo'yicha qarashlar. Iqtisodiyot nazariyasi va Ekonomiks. Iqtisodiyot nazariyasi predmeti ta'rifi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi va vazifalari. Bilish vazifasi, amaliy vazifasi, uslubiy vazifasi, g'oyaviy tarbiyaviy vazifasi. Iqtisodiy qonunlar. Ularning ta'rifi. Umumiy, xususiy va maxsus iqtisodiy qonunlar. Iqtisodiy kategoriyalar va ularning turlari. Umumiy, xususiy va maxsus iqtisodiy kategoriyalar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining bilish uslublari. Iqtisodiy jarayonlarni bilishning dealektik uslubi. Ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez usullari. Mantiqiylik va tarixiylikning birligi uslubi. Eksperiment, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlilini qo'shib olib borish uslubi. Induksiya, deduksiya, tizimli tahlil, taqqoslash, statistik, matematik va grafik usullar.
M3	**Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari.** Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi. Ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmeti. Mehnat vositalari va uning tarkibi. Mehnatning ta'rifi. Ishlab chiqarishning tadbirkorlik omili. Ishlab chiqarish funksiyasi. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni. Ishlab chiqarish sohalari. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari. Moddiy ishlab chiqarish bo'limlari. Birinchi bo'linma, ikkinchi bo'linma. Ishlab chiqarishning ikki tomoni. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari. Ijtimoiy ishlab chiqarish va uning natijasi. Mahsulotning natural va qiymat tarkibi. Zaruriy mahsulot va qo'shimcha mahsulot. Ishlab chiqarish funksiyasi. Mahsulotning uch xi o'lchami. Umumiy mahsulot, o'rtacha mahsulot, so'ngi qo'shilgan mahsulot. Unumdorlikning pasayib borish qonuni. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i. Ishlab chiqarish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Mehnat unumdorligi.
M4	**Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va doiraviy aylanish.** Iqtisodiy tizim ta'rifi. Iqtisodiy tizim ko'rinishlari. An'anaviy iqtisodiyot. Ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyoti. Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi. Ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmeti. Doiraviy aylanishda ishlab chiqarish jarayoni. Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: tarixiy-formatsion, madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv. Iqtisodiy tizim tushunchasi. Ishlab chiqarish jarayonining doiraviy aylanishi.

M5	**Mulkchilik munosabatlari va ijtimoiy soha.** Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulk turlari va ko'rinishlari. Mulkchilik munosabatlari. Mulkni iqtisodiy jihatdan realizatsiyasi. Mulkka egalik qilish, foydalanish, o'zlashtirish va tasarruf etish vazifalari. Mulkiy huquqlarning vakolatlarini taqsimlanishi. Mulk obyekti va subyektlari. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni. Davlat mulki, jamoa mulki, shaxsiy mulk va xususiy mulk. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, maqsadi, yo'llari va usullari. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bosqichlari. Zamonaviy bosqichning o'ziga xos xususiyatlari.
M6	**Tovar pul munosabatlarining rivojlanishi. Aniq va abstrakt mehnat.** Tovar ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Natural ishlab chiqarish. Tovar ishlab chiqarish. Ularning umumiy jihatlari va farqlari. Tovar va uning xususiyatlari. Ijtimoiy zaruriy naflilik. Tovarning almashuv qiymati. Tovar ishlab chiqaruvchi mehnatining ikki yoqlama tabiati. Aniq mehnat va abstrakt mehnat. Mehnat unumdorligi va mehnat intensivligi. Qiymatning mehnat nazariyasi. Keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi. Qiymat shakllari rivojlanishi va pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari. O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi va uning barqarorligini mustahkamlash yo'nalishlari.
M7	**Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi.** Bozor iqtisodiyotining paydo bo'lishi, mazmuni va asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyoti ta'rifi. Bozor iqtisodiyoti subyektlari. Uy xo'jaliklari. Tadbirkorlik sektori. Davlat bozor subyekti sifatida. Bozor subyektlarining o'zaro aloqalari. Bozor iqtisodiyotining umumiy belgilari. Klassik va sof bozor iqtisodiyoti. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turlari va tuzilishi. Bozor infratuzilmasi va uning elementlari.
M8	**Bozor iqtisodiyotining O'zbekistondagi xususiyatlari.** Bozor iqtisodiyotiga o'tish sabablari. O'tish davrining mazmuni va yo'llari. Evolyutsion va revolyutsion yo'llar. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiyotni erkinlashtirish. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini yaratish. Iqtisodiyotda institutsional, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash. Ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish. Bozor iqtisodiyotiga o'tish xususiyatlari va tamoyillari. O'zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar va ularning asosiy yo'nalishlari. Mulkiy islohotlar. Tarkibiy islohotlar. Ijtimoiy islohotlar. Agrar islohotlar. Moliyaviy islohotlar. Boshqaruv tizimidagi islohotlar. Tashqi iqtisodiy aloqalardagi islohotlar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida milliy strategik vazifalar va ularning amalga oshirilishi.
M9	**Talab va taklif. Bozor muvozanati.** Talab tushunchasi. Ishlab chiqarish omillariga talab. Iste'mol buyumlariga talab. Haqiqiy talb. Qondirilgan talab. Qondirilmagan talab va uning shakllari. Talabga ta'sir qiluvchi ichki omillar. Endogen va ekzogen talab. Narxning talabga ta'siri. Talab qonuni. Talab egri chizig'i. Giffen samarasi. Almashuv samarasi. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi tashqi omillar. Engel qonuni. Engel egri chizig'i. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Narx darajasi va taklif miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Taklif egri chizig'i. Taklifga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillar. Talab va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati. Muvozanatli narx. Muvozanatlik farqlari: bir zumlik; qisqa davrli va uzoq davrli muvozanatlik holatlari. Muvozanatlikning statik va dinamik modellari. Talabning egiluvchanlik ko'rsatkichi. Taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi. Iste'molchi hatti-harakati nazariyasi. Naflilik funksiyasi. So'nggi qo'shilgan naflilik. Yapli umumiy naflilik. Naflilikni maksimallashtirish qoidasi. Befarqlii egri chizig'i. Iste'molchi byudjetining cheklanganligi.
M10	**Raqobat va monopoliya.** Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari. Raqobatning asosiy vazifalari: tartibga solish, resurslarni joylashtirish, innovatsion, moslashtirish taqsimlash, va nazorat qilish vazifalari. Tarmoq ichidagi raqobat shakllari: erkin raqobat, monopolistic raqobat, monopoliya va oligapoliyalar. Tarmoqlar aro raqobat: xirrom raqobat, halol raqobat. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi. Monopoliyalarning vujudga kelishi. Ishlab chiqarishning to'planishi. Kapitalni tuplanishi. Kapitalning markazlashuvi. Bozorning qamrov darajasiga ko'ra: sof monopoliya, monopsoniya, oligapoliya. Monopoliyaning vujudga kelish sabablariga ko'ra turlari: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopoliyalar. Sun'iy monopoliya shakllari. Monopoliyaning salbiy va ijobiy jihatlari. O'zbekistonda monopoliyaga qarshi qonunchilik
M11	**Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari.** Narxning mazmuni, vazifalari va uning darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Narx turlari va ularning mazmuni. Raqobatning turli ko'rinishlari

	sharoitida narxning shakllanish husussiyatlari. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirish xususiyatlari.
M12	**Biznes va tadbirkorlikda texnologik va innovasion samaradorlik. Tadbirkorlik kapitali.** Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashtirilishi va rag'batlantirilishi. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari, ularni tashkil etish va boshqarishning bozor tizimlari. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati bosqichlari. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undanfoydalanish samaradorligi
M13	**Ishlab chiqarish xarajatlari va foyda. Ish xaqi va mexnat munosabatlari.** Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari. Muomala xarajatlari: qushimcha muomala xarajatlari va sof muomala xarajatlari. Tashqi va ichki xarajatlar. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar. Umumiy xarajatlar. Bevosita va bilvosita xarajatlar. Qisqa va uzoq muddatli xarajatlar hamda ularning tamoyillari. Samaraning kamayib borish qonuni. Ishlab chiqarish miqiyosining ijobiy samarasi. Foydaning mazmuni: foyda normasi va massasi. Tannarx. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Ish haqining turlari. Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari. Mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli.
M14	**Agrar munosabatlar: ijara haqi va renta.** Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari. Yerning resurs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Yer mulkchilik va xo'jalik yuritish ob'ekti. Yerga egalik va yerdan foydalanish huquqi. Yer rentasi nazariyasiga bo'lgan turli xil yondashuvlar va ularning tarixiy shakllari. Yer rentasining mazmuni va turlari: differensial renta, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi. Yerning narxi va uni belgilovchi omillar. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majuasi va uning sohalari. Agrobiznes va uning turlari. Dehqon, fermer va shirkat xo'jaliklari. Agrofirma, agrosanoat birlashmasi, agrosanoat kombinati.O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. Yerga mulkchilik munosabatlari. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash choralari.

M15	**Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko`rsatkichlari.** O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi. Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.Ijtimoiy takror ishlab chiqarish. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot. Nominal va real yalpi ichki mahsulot. Narx indeksi. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi. Y=C+I+G+NX. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad. Xufyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari. Milliy hisoblar tizimi. YAIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. YAIMni hisoblashga sarf-harajatlar bo'yicha yondashuv. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari. Investitsion sarflar. Davlat sarflari. Chet elliklarning sarflari. YAIMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv.
M16	**Yalpi talab va yalpi taklif.** Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi talab egri chizig'i. Yalpi talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar: iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar, investitsion sarflar, davlat sarflari, sof eksportdagi o'zgarishlar.Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi taklif egri chizig'idagi yotiq, oraliq va tik kesmalar. Yalpi taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: resurslar narxining o'zgarishi, samaradorlikning o'zgarishi, huquqiy me'yorlarning o'zgarishi. Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning o'zgarishi. AD-AS modeli. Yalpi talab va yalpi taklif egri chiziqlarining kesishishi. Xrapovik samarasi. Milliy bozorning to'yinganlik darajasi. Taqchillikning iqtisodiy tabiati va uni bartaraf qilish yo'llari.
M17	**Iste'mol, jamg`arma va investitsiyalar.** Iste'molning mazmuni va uning turlari. Iste'mol fondi va iste'mol sarflari. Jamg'arma va uning maqsadi. Iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilovchi omillar. Iste'mol va jamg'arma funksiyasi. Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik va ularni aniqlash. Jamg'arishning mazmuni va uning manbalari. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish. Jamg'arish normasi. Nominal va real jamg'arish. Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. Investitsiyalarning manbalari va tuzilishi. Investitsiyalarga sarflar darajasini belgilovchi omillar. Yalpi va sof investitsiyalar. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati

	o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri. Investitsiya funksiyasi.Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbat. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik va keynscha modellari, ular o'rtasidagi farqlar.
M18	**Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish va milliy boylik.** Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish sur'ati. «70 miqdori qoidasi». Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Iqtisodiy o'sishning omillari. Yalpi talab va yalpi taklifning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Iqtisodiy o'sishni belgilovchi xususiy ko'rsatkichlar. Keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi ko'rsatkichlari. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar. Iqtisodiy o'sishning keynscha va neokeynscha modellari. Kobb-Duglas modelining mazmuni. R.Harrod va Ye.Domar modellari. V.Leontevning "harajatlar-natijalar" modeli. "Nol darajadagi iqtisodiy o'sish" konsepsiyasi. Milliy boylik va uning tarkibiy qismlari. Moddiy-buyumlashgan, nomoddiy (intellektual) va tabiiy boylik.
M19	**Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy beqarorlik** Iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va ularning namoyon bo'lish shakllari. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishi. Iqtisodiy sikl fazalari. Siklik tebranishlar. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Eksternal va internal nazariyalar. Sof monetar nazariya. Yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi. Jamg'arish nazariyasi. Psixologik nazariya. Iqtisodiy sikl turlari. Iqtisodiy inqirozning mazmuni, sabablari va turlari. Pul-kredit sohasidagi inqiroz, valyuta inqirozi, birja inqirozi, ekologik inqiroz, tarmoqlar inqirozi, tarkibiy inqiroz, agrar inqiroz. Davriy, oraliq, nomuntazam inqirozlar. Ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlari.
M20	**Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati.** Iqtisodiy muvozanat tushunchasi. Umumiqtisodiy va xususiy muvozanat. Turg'un va muttasil rivojlanib boruvchi muvozanatlik. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlash usullari. Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli. Resession va inflyatsion farqlar. Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli. Multiplikator samarasi. Akselerator samarasi. "Tejamkorlik parodoksi". Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari. Mutanosibliklarning tasniflanishi. Mutanosibliklarni ta'minlash orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatli rivojlantirish maqsadlari. O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirilishi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirish natijalari. Iqtisodiyot ichki tuzilishidagi o'zgarishlar. Innovatsion

	texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni o'z ichiga oluvchi uzoq muddatli dasturning ahamiyati.
M21	**Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik** Yalpi ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Yalpi ishchi kuchining miqdor va sifat jihatdan aniqlanishi. FTTni ishchi kuchining sifat jihatdan takomillashuviga ta'siri. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Ishchi kuchining qiymati. Ishchi kuchi bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchining ayrim sohalardan bo'shashi va uni qayta taqsimlashning bozor mexanizmi. Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. Neoklassik, keynscha, monetaristik, institutsional-sotsiologik maktab konsepsiyalari. Shartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi. Bandlik modellari. Moslashuvchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi.Ishsizlik va uning turlari. Friksion, tarkibiy va siklik ishsizlik. Institutsional, texnologik, hududiy, yashirin, turg'un ishsizlik. Ishsizlikning tabiiy darajasi. Ishsizlik darajasi va uni aniqlash. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. A.Ouken qonuni. Ishsizlik va inflyatsiyaning o'zaro bog'liqligi.
M22	**Moliya tizimi va moliyaviy siyosat** Moliyaning mazmuni va ahamiyati. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari. Moliyaning vazifalari. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Davlat byudjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi. Davlat byudjetining daromadlari va harajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Davlat ichki qarzi. Davlat krediti. Davlat tashqi qarzi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Soliq solish tamoyillari. Soliq. Soliqlarning turkumlanishi. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-byudjet) siyosat.
M23	**Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli** Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. Pulning aylanish tezligi. Pul miqdorini aniqlashga turlicha yondashuvlar. MV=PQ tenglamasining amal qilishi. Pul agregatlari. Pul bozorida talab va taklif: M=L(r)P. Pul taklifi va uning multiplikatori. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Inflyatsiya darajasi va sur'ati. Talab va taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya turlari: o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya. Inflyatsiyaning ijtimoiy-

	iqtisodiy oqibatlari, Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati. Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Kredit munosabatlarining ob'ektlari va sub'ektlari. Kredit resurslarining manbalari. Kredit berish tamoyillari. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish. Banklarning iqtisodiy mazmuni. Bank tizimi. Markaziy bank va uning vazifalari. Tijorat banklari va ularning vazifalari. Bank operatsiyalari va bank foydasining hosil bo'lishi. Bank tizimining takomillashtirilishi. IS – LM modelida byudjet-soliq va pul kredit siyosati.O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash siyosatining amalga oshirilishi. So'mning harid quvvatini oshirib borish va barqarorligini ta'minlash. Inflyatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish. Pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish. Milliy valyuta almashuv kursining barqarorligiga erishish.
M24	**Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli** Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi. Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik, monetaristik, keynscha nazariyalari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi. Davlatning iqtisodiy o'rni va vazifalari: bozor munosabatlari qatnashchilarini huquqiy himoyalash, raqobatchilik muhitini vujudga keltirish; resurslar, mahsulotlar va daromadlarni qayta taqsimlash; iqtisodiyotning va pul muomalasining barqarorligini ta'minlash; tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish. Fan-texnika taraqqiyoti, tarkibiy, ijtimoiy va mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda davlatning o'rni. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi bevosita va bilvosita usullari. Iqtisodiyotning davlat sektori va uning chegaralari. Davlat buyurtmalari va davlat haridlari. Iqtisodiyotni bevosita tartibga solishning ma'muriy vositalari. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi. Pul-kredit siyosati. Monetar siyosat. Byudjet siyosati. Davlat iqtisodiy dasturlari. Tashqi iqtisodiy usullari.
M25	**Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati** Aholi daromadlari, ularning turlari va shakllanish manbalari. Nominal va real daromad. Daromadlarning tabaqalanish sabablari va omillari. Turmush darajasi va sifati. Turmush darajasi va qashshoqlikning ko'rsatkichlari. Oila byudjeti: daromadlar va harajatlar tarkibi. Farovonlikning eng quyi chegarasi. Turmush tarzi. Yashash minimumi. Iste'molchi savatchasi. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash. Lorens egri chizig'i. Ditsel va Jini koeffitsiyentlari. Kuznes gipotezasi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar. Daromadlarni davlat tomonidan qayta taqsimlash g'oyasi, maqsadi va dastaklari. Ijtimoiy to'lovlar. Ijtimoiy

	siyosat. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari. Daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish. Ichki iste'mol bozorini himoya qilish. Aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatidan yangi bosqichga o'tilishi. Hozirgi bosqichda kasanachilik sohasi bandlik va oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbaiga aylanib borayotganligi.
M26	**Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi** Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari. Jahon xo'jaligi sub'ektlari. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi. Xalqaro mehnat taqsimoti. Iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning o'sishi va bevosita xalqaro ishlab chiqarishning shakllanishi. Iqtisodiyotning baynalminallashuvida FTT va transmilliy kapitalning o'rni. Globallashuv jarayonining mohiyati va asosiy yo'nalishlari. Jahon xo'jaligi globallashuvi jarayonlarining ziddiyatli tomonlari. Turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi. Boy va qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi farqning kuchayishi. Ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi. Turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining farqlanishi. Hozirgi davrdagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelishiga globallashuv jarayonlarining ta'siri. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari. Kapitalning xalqaro harakati. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi. Fan-texnika yutuqlarining xalqaro ayirboshlanishi. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi.
M27	**Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi** Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari to'g'risidagi turlicha nazariyalar va ularning asosiy yo'nalishlari. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini taqozo qiluvchi omillar. Jahondagi asosiy integratsion guruhlarning amal qilish xususiyatlari. Ochiq iqtisodiyot va uning o'ziga xos belgilari. Davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishidagi shart-sharoitlar. Turli mintaqalardagi asosiy integratsion guruhlar. Yevropa Ittifoqi (YEI), Erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika bitimi (NAFTA), Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH). O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart-sharoitlari. Respublikaning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining

	global, transkontinental, mintaqalararo, mintaqaviy darajalari. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
M28	**Jahon bozori va uning rivojlanishi. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.** Xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar. Mutlaq ustunlik va qiyosiy ustunlik nazariyalari. Xeksher-Olin-Samuelson modeli. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi. Ishchi kuchi malakasi modeli. Muqobil harajatlar modeli. Tovarning hayotiy sikli nazariyasi. Xalqaro savdoning mazmuni. Eksport va import, ular o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Taqqoslama eksport ixtisoslashuvi koeffitsiyenti. Eksport kvotasi. Eksport va import multiplikatori. Eksport va import hajmi o'zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'siri. Xalqaro savdoning xususiyatlari. Proteksionizm va erkin savdo siyosatlari. Eksportni rag'batlantirish usullari. To'lov balansi va uning tarkibi. Tashqi savdo balansi. Absorbsiya. Kapital harakati balansi. Rasmiy zaxiralarning asosiy ko'rinishlari. Rasmiy zaxiralar bo'yicha operatsiyalar. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelishida tashqi qarz va tashqi savdo balansidagi nomutanosibliklar kuchayishining ta'siri. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Milliy va xalqaro valyuta tizimi. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari: oltin standart, oltin-devizli va suzib yuruvchi valyuta tizimi. Valyuta kursi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Harid qilish layoqati pariteti nazariyasi. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi. Xalqaro valyuta fondi. Yevropa valyuta tizimi. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki. Xalqaro moliyaviy korporatsiya. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti. Yevropa tiklanish va taraqqiyoti banki. Osiyo taraqqyot banki.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

S1	Iqtisodiyot nazariyasi faniga kirish.
S2	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, vazifalari va uslublari.
S3	Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari.
S4	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va doiraviy aylanish.
S5	Mulkchilik munosabatlari va ijtimoiy soha.
S6	Tovar pul munosabatlarining rivojlanishi. Aniq va abstrakt mehnat.
S7	Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi.
S8	Bozor iqtisodiyotining O'zbekistondagi xususiyatlari.
S9	Talab va taklif. Bozor muvozanati.
S10	Raqobat va monopoliya.
S11	Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari.
S12	Biznes va tadbirkorlikda texnologik va innovasion samaradorlik. Tadbirkorlik kapitali.
S13	Ishlab chiqarish xarajatlari va foyda. Ish xaqi va mexnat munosabatlari.
S14	Agrar munosabatlar: ijara haqi va renta.
S15	Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko`rsatkichlari.
S16	Yalpi talab va yalpi taklif.
S17	Iste'mol, jamg`arma va investitsiyalar.
S18	Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish va milliy boylik.
S19	Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy beqarorlik.
S20	Milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati.
S21	Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik
S22	Moliya tizimi va moliyaviy siyosat
S23	Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli.
S24	Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli
S25	Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati
S26	Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi
S27	Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi.
S28	Jahon bozori va uning rivojlanishi. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
"Iqtisodiy nazariya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Iqtisodiy nazariya fanining mohiyati, ta'rifi, vujudga kelishi va rivojlanish hamda asosiy yo'nalishlari va nomlari.
2.	Iqtisodiy nazariya fanining tadqiqot obyekti va predmeti.
3.	Iqtisodiy nazariya fanining metodologik asosi, metodi ilmiy kategoriyalari va tushunchalari.
4.	Iqtisodiy nazariya fanining funksiyalari va mantiqiy tarkibi.
5.	Iqtisodiy nazariya chinakam ilmiylikni, umumdemokratik tamoillarini vatushunchalari.
6.	Jamiyat, ijtimoiy ehtiyojlar vaularni qondirish vositalari. Insoniyat tarixiy-progressiv davrlar va jamiyatlar.
7.	Har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining, hayoti va taraqqiyotining moddiy asoslari.
8.	Moddiy ishlab chiqarish va uning asosiy resurslari va omillari.
9.	Ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish usuli.
10.	Ijtimoiy ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va iste'mol hamda ularning o'zaro bogliqligi.
11.	Ijtimoiy mehnat taqsimotining mohiyati.
12.	Moddiy maxsulot va jami ijtimoiy mahsulot ularning mahiyati.
13.	Pirovard maxsulot, sof mahsulot, hamda yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot.
14.	Ma'naviy ishlab chiqarish va xizmatlar.
15.	Xizmatlarning moxiyati, xillari, turlari va hususiyatlari.
16.	Zamonaviy jamiyatdagi halq xo'jaligi sohalar va tarmoqlar.
17.	Zamonaviy jamiyatdagi korxonalar hamda ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri.
18.	Iqtisodiy qonunlarning mohiyati, obyektivligi, xillari hamda iqtisodiy qonun va boshqa iqtisodiy qonunlar.
19.	Mulkchilik munosabatining mohiyati, obyektlari mazmuni, xillari va sistemalari.
20.	Mulkdorlik uning xillari va turlari.
21.	Mulkchilik (mulkdor) hamda uning vazifalari
22.	Turli mamlakatlarda tarixan mavjud bo'lgan zamonaviy ijtimoiy iqtisodiy tizimlar.
23.	Ibtidoiy-jamoatchilik iqtisodiy tizimlarning mohiyati.
24.	Quldorlik iqtisodiy tizimining mohiyati va uning jixatlari.
25.	Zamindorlik iqtisodiy tizimining mohiyati hamda avzalliklari
26.	Sarmoyaviy-sohibkorlik iqtisodiy tizimining mohiyati.
27.	Sosialistik davlatning ijtimoiy markazlashgan iqtisodiy tizimining mohiyati.
28.	O'zbekiston demokratik sohibkorlik iqtisodiy tizimining mohiyati.
29.	Ijtimoiy iqtisodiy tizimlarning turli mamlakatlarda vujudga kelishi va rivojlanishning turlichaligi, o'ziga xosligi hamda xususiyatlari.
30.	Ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh sahifasi va omillari hamda uning xossalari.
31.	Moddiy ishlab chiqarishnig bevosita va privord maqsadlari.
32.	Ijtimoiy ishlab chiqarishning texnologik usullari
33.	Moddiy ishlab chiqarish sohasining, boshqa sohaslarning va butun xalq xo'jaligining jami ishlovchisi.
34.	Ishlab chiqarish. Rivojlanishi bilan jami ilovachi tarkibining, nisbatlarning va mehnat mazmunining o'zaro borishi.
35.	Mehnat unumdorligining mohiyati, ko'rsatgichlari va o'sish hamda ularga ta'sir etuvchi omillar.
36.	Mashina ishlab chiqarish sharoitida texnikaga va texnalogiyaga sosial (ijtimoiy-insoniy) talabalarning o'sishi hamda ishlohatlarni faollashtirish shart-sharoitlari.
37.	Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, xillari va mezonlari hamda uni oshirish yo'llari.
38.	Turli xil iqtisodiy tizimlarning umumiy shakllari: natural va tovar-bozor xo'jaliklar.
39.	Tovar ishlab chiqarishning mohiyati asosiy shart-sharoitlari va turlari.
40.	O'zbekistonda korxonaning asosiy fondi.
41.	Sof bozor munosabatlarining iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash usullari bilan uyg'unlashgan modeli.
42.	Narx belgilash raqobat kurashining mukammal va nomukammal usullarini mezoni ekanligi.
43.	Xozirgi kunda O`zbekiston Davlatining narx siyosati va axoli sotsial ximoyalash masalalari.
44.	O'zbekiston korxonalarida asosiy fondlari amortizasiyasi, amortizasiya normasi va amortizasiya fondi.
45.	O'zbekistonda korxonaning aylanma fondilari.
46.	O'zbekiston korxonalarida tovar fondi, muomala fondlari va aylanma vositalari hamda nomoddiy aktivlari.
47.	O'zbekistonda korxona fondlarining aylanish tezligi va aylanish vaqti, hamda korxona aylanma vositalarining aylanish tezligi va aylanish vaqti.
48.	O'zbekiston iqtisodiy tizimida ijara. Ijara obyektlari va subyektlari hamda ijara shartnomalari.
49.	O'zbekistonda ijara munosabatlarning mazmuni, hamda ijara subyektlarining majburiyatlari va huquqi.
50.	O'zbekistonda korxonani ijaraga berish-olish uning tartibi va ahamiyati.

"Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari faning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada iqtisodiy bilim ko'nikma hamda bilimlarni shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, iqtisodiyot nazariyasi

faning iqtisodiy qonunlar,kategoriyalar,ijtmoiy-iqtisodiy munosabatlar,iqtisodiy tizimlar va ularni amal qilishi haqidagi muammolarni obyektiv tarzda ochib berish ko'zda tutiladi.Keltirilgan mavzular bo'yicha talabalar olib borayotgan tatqiqotlar,milliy iqtisodiyotning dolzarb muammolariga qaratlib talabalr tomonidan amaliy ishlashni talab etib bu xol ularda iqtisodiyot amaliyotida amaliy ko'nikmalarni, to'g'ri iqtisodiy fikirlashni shakillanishiga sabab bo'ladi.Bu holat **mustaqil ta'limda** nazarda tutilgan mavzular doirasida talabalar ish olib borishadi.Fan bo'yicha mustaqil ta'limda talabalar yuqorida keltirilgan mavzulardan tashqari o'z xoxishlariga ko'ra boshqa mavzudagi muammolarni ochib berish imkoniyatiga ega.Fan bo'yicha tavsiya etilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida keltirilgan.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Iqtisodiyot nazariyasining mohiyati va mazmuni, nazariy asoslarini, iqtisodiyot nazariyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, rejalashtirish, tahlil etish, milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlari; makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning mohiyati; iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarni (kategoriyalarni), iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • Talaba iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; iqtisodiy muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • elektron materiallar • keys-texnologiyalar • vizual, muammoli, mualliflik ma'ruzalari, ikki tomonlama tahlil, Insert, klaster, «Venna», sinkveyn va boshqalardan foydalanish
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar:

1. Shodmonov Sh.Sh. Raxmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Zamin nashri», 2021. – 856 bet.
2. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2014. – 480 bet.
3. M.M.Мухаммедов, Ж.Р. Зайналов, У.Н. Нормуродов, И.И. Аюбов, Й.М. Халиков ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик – Самарқанд.: "FAN BULOG`I" нашриёти, СамИСИ, - 2022 y. 490 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2023. – 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" - T.: O'zbekiston, 2017.
4. Tojiboyeva D. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan To'ldirilgan, 2-nashri. O'quv qo'llanmasi. TMI, T.:2005, 4358 bet.
5. Шодмонов Ш.Ш., Мухаммедов М.М., Камилова Н.А Экономическая теория. Учебник для бакалавров – Т.: "Иқтисодиёт - молия" 2021. - 452

Axborot manbalari (saytlar):

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.economist.com
4. www.worldeconomics.com
5. www.tradingeconomics.com
6. http://grad-schools.usnews.rankingsandreviews.com / best-graduate-schools / top-humanities-schools/economics-rankings
7. www.ereport.ru - Obzornaya informatsiya po mirovoy ekonomike
8. www.stplan.ru - ekonomika i upravlenie
9. www.catback.ru - nauchnie stati i uchebnie materiali po ekonomike

	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
	Fan/modul uchun mas'ullar: 1. B.M.Boboqulov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi. 2. S.L.Alibekova – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, i.f.n.
	Taqrizchilar: 1. N.U.Arabov – SamDU, "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi mudiri,

	iqtisodiyot fanlari doktori, professor (ichki). 2. T.S.Sharipov – SamISI, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi (tashqi).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **A.N.Nizamov**

Institut direktori: **Sh.D. Djurakulov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha I-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sh.Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslarini boshqarish fakulteti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsentlar,ma'sul B.M.Bobokulov,Sh.S.Sharifov va ass.J.K.Boymurodovlar tomonidan tuzilgan "Iqtisodiy nazariya" fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi o'quv rejaga mos ravishda tuzilgan bo'lib unda qaysi mavzularni auditoriyada va qaysi mavzularini mustaqil ta'lim shaklida o'tish batafsil yoritib berilgan.Ma'ro'za va amaliy darslarda iqtisodiy nazariyaning kelib chiqish tarixi fanining predmeti va vazifalari o'rganish usullari batafsil o'rganib chiqish lozimligi ko'rsatilgan.

Talabalarga iqtisodiyot nazariyasining mazmuni-mohiyati,vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlari,iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini,iqtisodiy qonunlar va tamoyillarni o'rganish jarayonlarning amaliy xolati,iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini,xududlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayoni hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini xosil qilish o'rganiladi.

O'qituvchining dars jarayonidagi asosiy vazifasi talabaning o'qish jarayonidagi o'zlashtirish qobiliyatini oshirish,talabada innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish,zamonaviy axborot-kommunikatsiyalar tizimidan keng foydalanish faoliyatini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga amaliy yordam beradi.

"Iqtisodiy nazariya" fanini o'rganishda qo'llaniladigan ilg'or ta'lim texnologiyalarni va metodlarini qo'llagan holda, o'quv jarayonlarini tokomillashtirish nazarda tutilgan.Talabaning ushbu fanni mukammal o'rganib olish uchun qo'yilgan talablar ushbu dasturda o'z aksini topgan.

Fanni o'zlashtirish jarayonidagi zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ham keltirilgan.Ayrim mavzularni o'rganish jarayonida kafedra a'zolarining metodik, me'yoriy hujjatlari va qo'llanmalari foydalanish uchun tavsiya etilgan.SHu bilan birga,mamlakatimizda ishlab chiqarilgan ohirgi qonun-qoidalar, axborot manbalari (saytlar) tavsiya etilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Iqtisodiy nazariya"fanidan tuzilgan fan dasturi kafedrada muhokama qilingan ichki taqriz mavjud,fakultetning o'quv uslubiy kengashida muhokama qilinib o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etiladi.

SamISI "Iqtisodiyot" kafedrasi
dotsenti,i.f.n. **T.S.Sharipov**